

TA'LIM MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHDA GERMEVTIK YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI

Xurramova Mahfuza Anvarovna

TerDPI Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

XVIII asrda fanga kirib kelgan germenevtika sohasi ko‘plab jahon hamda o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilib kelinyapti. Germenevtika – keng ma’noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta’limot, tor ma’noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metod va qoidalar to‘plamidir.

Kalit so‘zlar: germenevtika, metod, metodologiya, pedagogika, psixologiya, falsafa, tushunish, tushuntirish, germenevtik yondashuv

CHARACTERISTICS OF THE HERMEUTIC APPROACH IN EDUCATIONAL CONTENT FORMATION

ABSTRACT

The field of hermeneutics, which entered science in the XVIII century, is being studied by many international and Uzbek scientists. Hermeneutics, in a broad sense, is a philosophical doctrine about the condition of understanding social existence, and in a narrow sense, it is a set of methods and rules used in the study of texts related to philology, jurisprudence, theology and other humanities.

Key words: hermeneutics, method, methodology, pedagogy, psychology, philosophy, understanding, explanation, hermeneutic approach.

Mamlakatimizda germenevtik metodologiya tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzlusiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida pedagogik asoslarning o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yildi. Aksariyat manbalarda matnni talqin qilish nazariyasi sifatida e'tirof etiladigan germenevtika, tom ma'noda juda keng doirada qo'llaniluvchi sohalararo ta'limotdir. Chunki, ma'noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san'atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. "Germenevtika" yunoncha "hermeneukos" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntiruvchi", "talqin etuvchi" ma'nosini bildiradi.

Falsafa tarixi ensiklopediyasida "Germenevtika – keng ma'noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta'limot, tor ma'noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o'rganishda qo'llaniladigan metod va qoidalar to'plami", deb ta'kidlangan. Lekin germenevtikaning qamrovi yuqoridagi ta'rifdan keng. Chunki germenevtika shunchaki metod va qoidalar to'plami emas, balki inson borlig'inining alohida ontologik ahamiyatga ega bo'lgan fenomenidir. Zero, germenevtika insonga tushunish va tushuntirish imkonini berish bilan borliqning (bor bo'lish, mavjudlikning) muhim asosini tashkil qiladi. Zero, ma'noni tushunish va talqin qilish hayot mazmunining tayanch bo'g'inidir.

Insonning hurmat-e'tiborga, buyuklikka loyiqligi, odatda, u yaratib qoldirgan ma'naviy meros, ijod mahsuli bilan belgilanadi. Germenevtik metodologiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish, bugungi kunda talqin va tushuntirishga muhtoj bo'lgan ma'naviy merosimizni tushunishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Zero, miloddan avvalgi VII-VI asrlarga borib taqaladigan falsafiy bilimlarning germenevtik talqini ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim metodologik asosdir.

Germenevtik doira bog'liqligi shu darajada bir-biri bilan taqozolanganki, ba'zan butun va qism ketma-ketligini aniqlash mushkul. Ya'ni, ba'zan butun qismni tushunarli qilsa, ba'zan esa qism butun haqidagi tasavvurni uyg'otadi. Masalan, olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik sportchi oltin medalga sazovor bo'ldi. Bu vaziyatning

guvoхи bo‘lgan o‘zga millat vakillari, agar O‘zbekiston haqida ilgari eshitmagan bo‘lsa, shu g‘olib sportchi timsolida O‘zbekiston haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Ya’ni butunning mohiyati qismida namoyon bo‘ladi va bu insonning ongida O‘zbekiston haqidagi tasavvurlar aynan birinchi vaziyat, ya’ni g‘olib sportchi misolidagi xotira asosida shakllanadi. Odatda kundalik hayotda ro‘y beradigan hodisalar yoki insonlar haqidagi tasavvurlar shu tarzda, ya’ni hayotda uchragan birinchi holatga bog‘liq rivojlanadi. Demak, qism orqali butun haqida tasavvurning uyg‘onishi, hayotda uchraydigan ilk vaziyatlar tufayli amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Аллаярова С. Бадиий ижод герменевтикаси. Услубий қўлланма. –Т.: Университет, 2011.
2. Аллаярова С. Белги ва мазмун метаморфозаси. –Тошкент: Noshir, 2013.
3. Арапов А. В. Герменевтика сакрального текста. -Воронеж : Изд-во Воронежского государственного университета, 2005.
4. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Тошкент: Akademnashr, 2014.
5. Бахтин М.М. Автор и герой: К философским
6. Allayarova S. Germenevtika. O‘quv qo‘llanma. T.; Universitet, 2017
7. Бласс, Ф. Герменевтика и критика -М.: Книга по Требованию, 2011.
8. Богин Г.И. Обретение способности понимать: Введение в филологическую герменевтику. –М.: Психология и Бизнес ОнЛайн, 2001.
9. Борисов Е. и др. Исследования по феноменологии и философской герменевтике -М.: 2001.
10. Брудный А. А. Психологическая герменевтика. -М.: Лабиринт, 2005.
11. www.ziyouz.com
12. www.wikipedia.org